



Globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrab-avaylashning muhim jihatlari

Majidova Zebiniso Salohiddin qizi

Jizzax davlat pedogogika universiteti

Xorijiy tili va adabiyoti 3-kurs talabasi

+998952514240

Email: majidovazebuniso1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi insoniyat dunyosida globallashish jarayoni chuqur ildiz otayotgan bir paytta milliy qadriyatlarni asrab qolishning ahamiyati, muhimligi va biz ularni nafaqat asrab qolishimiz, ularni rivojlantirishimiz uchun qilishimiz zarur bo'lgan harakatlar tizimini qay yo'sinda amalga oshirish zarurligi haqida fikr-mulohaza olib boriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, iqtisodiy qadriyat, siyosiy qadriyat, madaniy qadriyat, integratsiya.

Abstract: This thesis discusses the importance and significance of preserving national values in the context of the deepening process of globalization in today's world. It addresses the necessity not only to preserve these values but also to develop them, and outlines the system of actions that should be implemented to achieve this goal.

Key words: globalization, economic value, political value, cultural value, integration.



Аннотация: В данной тезе рассматривается важность и значимость сохранения национальных ценностей в условиях глубокой глобализации, происходящей в современном мире. Обсуждается необходимость не только сохранить эти ценности, но и развивать их, а также предлагается система действий, которую следует реализовать для достижения этой цели.

Ключевые слова: глобализация, экономическая ценность, политическая ценность, культурная ценность, интеграция.

Globalashuv - bugun toboro ommoviy axborot vositalarida, siyosiy arboblarnutqida, keng ommo og'zida keng ishlatilayotgan so'z. Xo'sh, globalashuvning o'zi nima, u bizning jamiyatimizga umuman insoniyat uchun qanday ta'siri bor, bu ta'sirlar ijobiymi yoki salbiy kabi savollarga javob berish bilan mavzuni ochib boramiz. Globaluv - butundunyoning bir butun bo'lib borishidir. Yaxshilab nazar soladigan, teran fikr yuritadigan bo'lsak bugungi dunyo holatiga, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy tizimlar toboro bir xillashib bormoqda. Dunyo iqtisodiyotida yagona kapitalizm hukmron, o'tgan asrning 90-yillarigacha hukm surgan sotsialistik va kapitalistik g'oyaviy, amaliy qarashlar hozirda mavjud emas. Dunyoning eng iqtisodiy qudratli mamlakatlari kapitalizm bilan toboro rivojlanib borayotganligi hammaga ma'lum. O'zbekiston ham mustaqillikdan so'ng rivojlanishning bozor iqtisodiyoti shakli ya'ni kapitalizmni tanladi. Biroq, birinchi prezidentimiz Islom Karimov yetakchiligidagi hukumat kapitalizmni post-industrial mamlakatlarda rivojlangan shaklini shunday ko'chirib olib kelmadi. Nima uchun? Sababi, milliy qadriyatlarni hisobga olishgan. Post-industrial mamlakatlardan biri Yaponiya yoki AQSh, har ikkalasi ham okeanbo'yida joylashgan, milliy qadriyatlar tizimi, qonunchiligi, xalqining turmush tarzi butkul biznikidan farq qiladi. Agar to'g'ridan-to'g'ri, hech qanday o'zgarishlarsiz kapitalistik rivojlanish tizimini olib kirganimizda xalq orasida tushunmovchilik paydo bo'lardi va tezda strategiyaning yaroqsiz bo'lib qolishiga



olib kelardi. Shu sababdan ham mustaqillikdan so'ng O'zbekistonni rivojlantirishning milliy qadriyatlarga asoslangan varianti "O'zbek modeli" ishlab chiqildi. Bu keltirilgan misollar faqatgina iqtisodiy sohada milliy qadriyatlarni saqlashning muhimligiga misol.

Yana bir nazariya borki, milliy qadriyatlar deyilganda faqat madaniyat, ma'naviyat tizimlari tushunilmaslik kerak, milliy qadriyatlar bu - muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq barcha narsalardir aslida, ya'ni bizning milliyligimiz ko'rinishidagi barcha sohalar xoh iqtisodiy xoh siyosiy bo'lsin milliy qadriyatlarimiz bilan moslashtirilgan bo'lsa milliy siyosiy, milliy iqtisodiy tizimga aylanadi. Siyosiy tizimning milliylikka moslashuvini misol tariqasida keltirib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng siyosiy tizimning liberalizm yo'lini tanladi, lekin bu sohada ham milliy madaniyat, xalq qadriyatlari hisobga olingandi. Shunchaki liberalizm, demokratiya rivojlangan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh kabi inson huquqlari birinchi o'rinda turuvchi mamlakatlarning tizimini olib qo'ysak nima bo'lardi? Bizga ma'lumki, yuqorida keltirgan mamlakatlarda siyosiy liberalizmga o'tish ancha oldin boshlangan, yuz yillar davomida sotsializm, kommunizm ostida ezilgan, fikrlash tizimi ushbu siyosiy tizimlar qolipi tushib qolgan yosh respublika uchun keskin, radikal undan tashqari boshqalarning siyosiy yutuqlarini milliy qadriyatlarga, xalqning mentalitetiga moslashtirmasdan olib kelganimizda ham xalq uchun, ham hukumat uchun qiyinchilik tug'dirishi aniq edi.

Butun dunyo aholisi bugungi kunda ham moddiy qadriyat jihatidan, ham ma'naviy qadriyat jihatidan integratsiyalashib bormoqda, Qo'shma shtatlarda yashovchi inson bilan Vyetnamda yashovchi inson deyarli bir xil kiyinishmoqda, lekin milliy liboslar faqat rasmiy tadbirlar, uchrashuvlarda kiyilmoqda, bunga sabab zamonaviy liboslar milliy kiyimlarga qaraganda qulay va uni siz istalgan mamlakatda kiyishingiz mumkin. Milliy kiyimlar bizning tarixiy o'tmishimiz, geografik mintaqamizni va qaysi joyga mansubligimizni bildirib turadi. Butun dunyo aholisi madaniy bir xil bo'lishi juda xunuk holat, bog' gullar bilan



chiroyli bo'lgani kabi dunyo madaniyatlar turfaolamligi bilan go'zaldir. Madaniyatlar turfa xilligini saqlab qolishda madaniy tadbirlar o'tkazilishi butun dunyo bo'ylab alohida rol o'ynashini e'tiborga olish zarur. Bunday tadbirlar orqali bir madaniyatni ommaga tanitishingiz, madaniyatlarga nisbatan yoshlar o'rtasida qiziqishni va tolerantlikni oshirishda muhim omil bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov Q. Falsafa asoslari.-T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2012-B.755.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, T. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 12-bet
3. Kakhkharova, M. M. (2019). SOCIAL-PHILOSOPHICAL FUNDAMENTAL FORMATION OF SPIRITUAL-SPIRITUAL COMMONWEALTH. Theoretical & Applied Science, (10), 682-687
4. Ariely, G. (2012). Globalisation and the decline of national identity? An exploration across sixty-three countries. *Nations and nationalism*, 18(3), 461-482.
5. Mukherjee, A. (2016). Culture, tradition and globalisation: Some philosophical questions. *Social Alternatives*, 35(1), 53-56.
6. Antonsich, M. (2009). National identities in the age of globalisation: The case of Western Europe. *National identities*, 11(3), 281-299.
7. Yogeeswaran, K., & Dasgupta, N. (2017). Conceptions of national identity in a globalised world: Antecedents and consequences. In *European Review of Social Psychology: Volume 25* (pp. 189-227). Routledge.



8. Komiljon o'g, O. U. B. (2024). KELAJAK AVLODINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(31), 43-46.
9. Murotovich, M. F. (2023). ZAMONAVIY YOSHLAR QADRIYATLARI VA JAMIYAT BOSHQARUVI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 121-127.
10. Абдужалилова, М. (2023). Globallashuv davrida ta'lim tizimining dolzarb masalalari. *Общество и инновации*, 4(10/S), 145-149.